

**"AVESTO" ASARINING ADABIY-BADIIY AHAMIYATI****Xolmatova Ruxshona Shuhrat qizi****Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti, filologiya va tillarni o'qitish  
(o'zbek tili) yo'nalishi 1-bosqich talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.19968502>**

**Annotatsiya.** Mazkur ishda jahon madaniyatining eng qadimgi yodgorliklaridan biri bo'lmish "Avesto" matnining tarkibiy tuzilishi, uning tarixiy-falsafiy mohiyati va Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviyatida tutgan o'rni tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida asarning "Gatlar", "Yasna", "Vendidod" kabi qismlarining o'ziga xos xususiyatlari, undagi dualistik qarashlar hamda "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" tamoyilining axloqiy asosi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Avesto, Markaziy Osiyo, zardushtiylik, Ardvisura, Gatlar, Yagona Tangri, yaxshilik va yomonlik

**Аннотация:** В данной работе анализируется структурное строение текста «Авесты» — одного из древнейших памятников мировой культуры, его историко-философская сущность и роль в духовности народов Центральной Азии. В процессе исследования освещаются особенности таких частей произведения, как «Гаты», «Ясна», «Вендидад», дуалистические взгляды, а также этическая основа принципа «Благая мысль, благое слово, благое дело».

**Ключевые слова:** Авеста, Центральная Азия, зороастризм, Ардвисура, Гаты, Единый Бог, добро и зло.

**Abstract:** This paper analyzes the structural composition of the "Avesta" text, one of the oldest monuments of world culture, its historical and philosophical essence, and its role in the spirituality of the peoples of Central Asia. The research highlights the specific characteristics of parts such as "Gathas", "Yasna", and "Vendidad", the dualistic views presented, and the moral foundation of the principle "Good Thoughts, Good Words, Good Deeds".

**Keywords:** Avesta, Central Asia, Zoroastrianism, Ardvisura, Gathas, One God, good and evil.

Insoniyat sivilizatsiyasi tarixida o'chmas iz qoldirgan nodir manbalar orasida "Avesto" alohida o'rin tutadi. Ushbu asar nafaqat zardushtiylik dinining muqaddas kitobi, balki qadimgi ajdodlarimizning turmush tarzi, huquqiy normalari, astronomik va tibbiy bilimlari hamda yuksak axloqiy me'yorlarini o'zida jamlagan qomusiy asardir. Bugungi kunda milliy o'zlikni anglash va umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirishda "Avesto" matni ustida ishlash, undagi ezgulik g'oyalarini tadqiq etish nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

"Avesto" - zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanib, dastlabki Sharq Falsafiy qarashlarmi o'zida aks ettiruvchi manbadir. Unda insonni kamolotga erishuvida mehnat, ezgulik, insoniylik, soflik, bag'rikenglik kabi sifatlarning ahamiyati chuqur ifodalangan. Zardushtiylik dinining nomi ushbu din asoschisi Zardusht (turli tillarda Zaratushra, Zoroastr) ismidan olingan. Uning tug'ilgan joyi noma'lum. Zardusht Miloddan avvalgi 1-ming yillikning birinchi choragida yashagan. Avesto (parfiyoncha: apastak - matn; ko'pincha „Zend-Avesto“, ya'ni „tafsir qilingan matn“ deb ataladi) — jahon madaniyatining, jumladan, Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tarixining qadimgi noyob yodgorligidir. „Avesto“ oromiy va pahlaviy yozuvlari asosida yaratilgan maxsus alifboda dastlab to'qqizta ho'kiz terisiga yozilgan. Ilk nusxalari asosida sosoniylar (miloddan avvalgi IV-VIII-asr) davrida 21 kitob holida yig'ilgan, bizgacha ularning chorak qismi (4 dan 1 qismi) yetib kelgan. Tiklangan matnga „Zand“ nomi bilan

sharhlar bitilgan. “Avesto” asari Markaziy Osiyo mamlakatlari va xalqlari uchun nafaqat diniy matn, balki mintaqaning qadimgi tarixi, ijtimoiy tuzumi, iqtisodi va madaniyatini o’rganishda eng asosiy va nodir manba bo’lib xizmat qiladi va hattoki Xoramz shahri uning vatani -deb ham ba’zi bir manbalarda berib o’tilgan. Bunga sabab, „Avesto“da tilga olingan joy nomlari (Varaxsha, Vaxsh)dan kelib chiqib, uning Amudaryo sohillarida yaratilgani aniqlangan.

“Avesto” to’rt qismdan iborat:

Yasna (“Diniy marosimlar”),

Yasht (ma’no jihatdan Yasnaga yaqin),

Visparad (“Barcha Ilohlar haqidagi kitob”),

Vendidad (“Yovuz ruhlarga qarshi qonunlar majmuasi”).

Yasna tarkibiga kirgan madhlar “Gatlar”(ayrim manbalarda “gohlar”) deb nomlanib, ularni Zardushtning o’zi yozgan deb taxmin qilinadi. Gatlar tarkibida Jamshid (Yima), Gershasp, Afrosiyob (Alp Erto’nga) kabi afsonaviy qahramonlar hayoti lavhalari uchraydi. Vendidad (yoki Videvdat) — “Avesto”ning bizgacha to’liq holda yetib kelgan yagona kitobi bo’lib, u asosan diniy qonun-qoidalar, marosimlar va huquqiy normalarni o’z ichiga oladi. Uning nomi “vi-daevo-data” iborasidan olingan bo’lib, “Devlarga (yovuz kuchlarga) qarshi qonun” degan ma’noni anglatadi.

“Avesto”da mifologik obraz sifatida tasvirlangan suv ma’budasi Ardivisura Anaxita zardushtiylar tasavvuricha, uzun bo’yli, adl qomatli, chiroyli qiz ko’rinishida bo’lgan. U oltin, zebu ziynatlar bilan o’ziga oro bergan holda tasvirlanadi.

Ko’zga ko’rinib keldi

Muqaddas Ardivisura

Yosh nihol go’zal qizdek,

Lek qudratli, purviqor,

Bo’yi adl, sarvqomat,

Nur taratib ilohiy,

Oliyjanob, purhikmat,

Bashang kamzuli yengli,

Oltin-ziynatli engli.

Barsman xipchip qo’lida

Ko’z-ko’z qilar sirg’asin

Shundan ko’rinib turibdiki, Ardivisura yosh niholdek nozik, go’zal, yuzidan ilohiy nur taralib turgan holda tasvirlangan. Ushbu ma’buda “Avesto”dagi boshqa ko’plab asotiriy personajlardan antropomorf qiyofadali bilan ajralib turadi. Ya’ni, u inson ko’rinishida go’zal qiz suratida namoyon bo’ladi. Shu o’rinda u hosildorlik ramzi sifatida ham e’tirof etilib, yerning unumdorligini oshiruvchi, bolalarga hayot beruvchi ilohiy kuch sifatida qadrlanadi. Uni xalq orasida, oilalar va ayollar farovonligini himoya qiluvchi ma’buda sifatida e’tirof etishgan. Yuqoridagi ustvor jihatlariga qo’shimcha tarzda Ardivirusa jasorat va kuch ramzi ham hisoblangan. U yovuzlik kuchlariga qarshi kurashuvchi ma’naviy kuch timsoli sifatida tasvirlanadi.

Ushbu tadqiqotda, “Avesto”dagi “Ezgu fikr, ezgu so’z, ezgu amal” -degan tamoyil haqida so’z olib borganimizda, bu ta’limot o’lkada shakllangan ko’p xudolik va oshiqcha sarf-xarajatlarga, atrof-muhitni ifloslanishiga hamda insonlar hayotida muhim o’rin tutgan jonli hayvonlarni qirib ko’p-ko’p qurbonliklar qilinishiga qarshi tura oladigan ta’limot edi. Bu

ta’limotga amal qilgan inson (Ezgu fikr, Ezgu kalom (so’z), Ezgu amal) butun hayoti davomida ana shu uchlikni qalbiga jo qilishi joiz hisoblangan. Ushbu ta’limot asoschisi Zardusht bo’lib, u o’z ta’limotini jamiyatda yashovchi har qanday sinf vakillari orasida qo’rqmasdan tarqatib o’zini haqiligini isbotlay olgan.«Avesto»dagi uchlikning haqiqiy manbalariga yondashiladigan bo’lsa, ular qadimgi zamon kishilarining axloqiy tasavvurlariga batamom muvofiq bo’lib tushadi. Fikr, so’z va ishning birligi ibtidoiy insonning ham ajralmas xislati edi. Uning ong, axloq va boshqalar xususidagi tasavvurlari o’zi mansub bo’lgan jamoa bilan uzviy bog’langan, jamoaning fikri uning ham fikri, jamoaning so’zlari uning ham so’zlari, jamoaning ishlari uning ham ishlari bo’lgan.

Yaxshilik va yomonlik o’rtasidagi kurash «Avesto»ning bosh g’oyasidir. Yaxshilik Ramzi – yakka xudo Axura Mazda, yomonlik ramzi – Ahrimandir. Hozirgacha «Avesto»ning ikki varianti mavjud. Birinchisi faqat «Avesto»ning o’zidan iborat . Tisht -xalq o’rtasida asrlar o’tishi davomida «Sust» nomi bilan o’zgargan. O’zbek xalq Og’zaki ijodidagi «Sust xotin» qo’shiqlarida Tishtar obrazi yaratilgan. Qurg’oqchilik Kelgan yillarida dehqonchilik bilan shug’ullanadigan odamlar Tishtar – yomg’ir Tangrisidan yordam so’raganlar. Bu marosim o’ziga xos ko’rinishda o’tkazilgan: Dehqonchilik bilan shug’ullaniladigan joylardagi ayollar to’planishib, odam shaklidagi Qo’g’irchoqqa kampirning ko’ylagini kiygizishib, «Sust xotin» qo’shig’ini aytishgan va O’z qo’ni-qo’shnilarinikiga kirishgan.Uy egalari qo’g’irchoqqa suv sepishgan, «Sust Xotin» qo’shig’ini aytganlarga xayr–sadaqa berishgan. Quyidagi parchada yaratilgan Sust xotin obrazi «Avesto»dagi suv xudosi Tishtar mifologiyasiga bog’lanadi.

Xulosa qilib aytganda, «Avesto» asarida insonning barkamol bo’lib yetishishida uning so’zi, fikri hamda ishi ezgu bo’lishi va ezgulikning tantanasi uchun xizmat qilishiga katta e’tibor beriladi. Ushbu axloqiy uchlik g’oyasi eng qadimgi davrlardan boshlab kishilik jamiyati taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yaratilgan barcha ma’rifiy asarlar mazmunining shakllanishiga asos bo’lgan.«Avesto» shunchaki tarixiy yodgorlik emas, balki bugungi kun yoshlari uchun ham o’z dolzarbligini yo’qotmagan ma’naviy dasturdir. Undagi ekologik madaniyat, mehnatsevarlik va adolatparvarlik g’oyalari hozirgi globallashuv davrida insoniyatni ma’naviy inqirozlardan asrashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qadimiy me’rosni o’rganish bizga o’zligimizni anglash va umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlash imkonini beradi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik.-T.”Sano Standandart”nashiriyoti. 2017.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., Sharq, 1998.
3. Avesto. O’zbekcha tarjima (Asqar Mahkam tarj.)-T.:2001.
4. «Avesto»dan (tarj. M. Ishoqov). O’zbek tili va adabiyoti jurnali, 1999, # 2-4
5. Abu Rayhon Beruniy. Al-osorul-boqiya an-al qarunul-holiya.-T.:1969
6. Abu Bahr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiy. Buxoro tarixi. – T.: 1966A.
7. Qayumov. Qadimiyat obidalari. – T.: 1971